

Talabalar turar joyida ichki tartib-qoidalar bilan tanishtirish bo'yicha yig'ilish o'tkazildi

Joriy yilning 10-sentabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining talabalar turar joyida Olmazor tumani 4-sonli IIB HPB katta inspektori podpolkovnik Sh.Yusupov, XQMBI katta leytenant O.Ismoilova, Ma'naviyat va marifat bo'limi boshlig'i F.Nabixanova, tyutor M.Eshonqulov, psixolog Sh.Ibrohimova, komendant A.Sultonov va talabalar ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.









Yig'ilish davomida tadbir ishtirokchilari tomonidan yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda universitet ichki tartib-qoidalariga rioya qilishlari hamda talabalar yotoqxonasida belgilangan majburiyatlarni bajarishi zarurligi haqida aytib o'tildi.